

YAPONIYA TA'LIM TIZIMINING RIVOJLANISHI VA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

Tursunova Nilufar
mustaqil tadqiqotchi.

E-mail: nilufartursunova@gmail.com.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yaponiya ta'lim tizimining rivojlanishi. Yaponiya davlati ta'lim-tarbiya masalalariga oid fikr, mulohazalar keltirilgan.

Tayanch iboralar: Yaqin Sharq ta'lim tizimi, Vision 2030, AI integratsiyasi, Gender tengligi va inkluziv ta'lim, PISA/TIMSS, Yaponiya 6-3-3-4 tizimi, Meydzi islohotlari, juku, 9 yillik majburiy ta'lim, Keju va Double Reduction, raqamli ta'lim.

Abstract. This article presents opinions and comments on the development of the education system of the countries of the Middle East and Asia.

Keywords: Middle East education system, Vision 2030, AI integration, Gender equality and inclusive education, PISA/TIMSS, Japan 6-3-3-4 system, Meiji reforms, juku, 9-year compulsory education, Keju and Double Reduction, digital education.

Аннотация. В данной статье представлены мнения и комментарии о развитии системы образования стран Ближнего Востока и Азии.

Ключевые слова: система образования Ближнего Востока, «Видение 2030», интеграция ИИ, гендерное равенство и инклюзивное образование, PISA/TIMSS, японская система 6-3-3-4, реформы Мэйдзи, дзюку, 9-летнее обязательное образование, кэджю и двойное сокращение, цифровое образование.

YAPONIYA TA'LIM TIZIMINING RIVOJLANISHI. YAPONIYA DAVLATI TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

Yaponiya – sharqning ta'lim orqali milliy iqtisodiy va ijtimoiy mo'jizalar yaratgan mamlakatidir. Ushbu davlatda qariyb XIX-asrdan boshlab ta'lim tizimi zamonaviy jamiyatning asosiy poydevori hisoblanib kelmoqda. Bugungi kunda Yaponiya o'z ta'lim tizimini AI va inkluzivlik kabi yangi tendentsiyalar bilan yanada rivojlantirmoqda. OECD, MEXT (Yaponiya Ta'lim, Madaniyat, Sport, Fan va Texnologiya vazirligi) va boshqa ishonchli manbalardan 2025-yilning sentyabr holatiga olingan asoslangan ma'lumotlar bugungi kunda Yaponiya ta'lim tizimi muqarrar strategik taraqqiyot yo'lida ekanligini ko'rsatadi.

O'ziga xos jihati shundaki, Yaponiyada ta'lim tizimi nafaqat bilim berish vositasi, balki milliy identifikatsiya va iqtisodiy o'sishning kaliti ham hisoblanadi. OECD ma'lumotiga ko'ra mazkur mamlakatda YaIMning 3.9% ta'limga sarflanadi. Bu ulush o'rtacha ko'rsatkichidan ham pastroq, ammo Yaponiyada ta'lim sifatini ta'minlashga yetarli bo'lmoqda. Sababi Yaponiyada ta'lim tizimi markazlashgan va

korruptsiyasiz nihoyatda samarali boshqariladi. 2025-yilda Yaponiya PISA testlarida yuqori o'rinlarni egallab, global ta'lim yetakchilaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Davlat ta'limga "umumiy bilim va donolikni yig'ish" sifatida qaraydi, bu esa Meiji davridan beri milliy siyosatning markaziy masalalaridan biri sifatida saqlanib kelmoqda. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, aynan ta'limning rivojlanishi Yaponiyani sanoat inqilobidan raqamli transformatsiyaga cho'qqisigacha olib kelgan.

Yaponiyada ta'lim tizimi taraqqiyoti VI-asrga borib taqaladi. Chunki aynan shu davrda Xitoy ta'sirida Yamato saroyida o'qitish jarayoni yo'lga qo'yilgan. Zamonaviy ta'lim tizimi esa Yaponiyada XIX-asr oxirida shakllana boshlagan. Yaponiyada XIX-asrdan keyingi zamonaviy ta'lim tizimi taraqqiyotini quyidagi tarixiy evolyutsion davrlar misolida ko'rib o'tish to'g'ri bo'ladi (20-rasm).



2.1-rasm. Yaponiyada XIX-asrdan keyingi zamonaviy ta'lim tizimi taraqqiyoti davrlari

1.Meydzi davri (1868-1912 yillar) - ushbu davrda 1871-yilda birinchi Ta'lim vazirligi tashkil etilgan. 1872-yilda "Gakusei" ya'ni Ta'limning asosiy kodeksi qabul qilingan. Imperator Meydzi davrida Yaponiyada AQSh va Fransiya singari g'arb mamlakatlarini namuna qilib olinib, milliy mintaleitetga mos milliy maktablar tizimi yaratilgan. 3-4 yillik majburiy ta'lim har bir bola uchun 1886 yilda joriy etilgan bo'lib, 1900-yildan ta'lim bepul qilingan, 1908-yilda esa majburiy ta'limning davomiyligi 3-4 dan 6 yilga uzaytirildi.

2.Ikkinchi Jahon urushi davri (1945 gacha): Mazkur davrda ta'limda "millatchilik" tomir otadi. Bundan tashqari Yaponiyada mazkur davrda urush ta'sirida ta'lim tizimi boshqa ko'plab mamlakatlardagi singari asosan harbiy maqsadlarga yo'naltirilgan. Biroq yaponlar ammo urushdan so'ng ta'limda samarali demokratizatsiyani yo'lga qo'ya oladilar. Yaponiya 1947-yilda o'zining yangi konstitutsiyasini qabul qiladi, hamda unda ta'limni bepul ekanligi va ta'lim olish uchun hamma teng huquqli ekanligi belgilab qo'yiladi.

3.Urushdan keyingi rivojlanish davri (1945-2000 yillar): Mazkur davrda Yaponiyada ta'lim "6-3-3" tizimida ishlay boshlaydi. Yani:

1) 6 yil boshlang'ich ta'lim;

2) 3 yil o'rta ta'lim;

3) 3 yil yuqori maktab (oliy ta'lim) joriy etiladi. Yaponiya uchun ayniqsa 1960-1980-yillar ta'limda yuksak o'zgarishlar davri bo'ldi, sababi bu davrda mamlakatda iqtisodiy o'zgarishlar natijasida ta'lim sifati ham samarali ravishda o'sishga erishgan. Natijada savodxonlik darajasi Yaponiyada 99% ga yetgan. 2006-yilga kelib hukumat tomonidan Ta'limning asosiy qonuni qayta ko'rib chiqilgan. Yaponiyaning Ta'lim to'g'risidagi yangi qonunida asosiy e'tibor "ijodkorlik va mustaqillik"ga qaratilgan. Yaponiyada ta'limning eng katta muammosi sifatida qo'shimcha darslar masalasini ko'rishimiz mumkin. Davlat tomonidan qo'yilgan va oliy ta'limga o'qishga kirish uchun qo'yilgan talab darajasidagi bilimni maktab darslarida olish imkonsizligi sababli yaponlar juda katta mablag' va vaqtini qo'shimcha ta'limga sarflashga majburlar.

2025-yildan e'tiboran Yaponiya ta'limi "6-3-3-4" tizimiga asoslana boshladi. Bu tizimga ko'ra boshlang'ich ta'lim 6 yil, o'rta ta'lim 3 yil, yuqori maktab 3 yil va oliy ta'lim ya'ni universitetdagi tahsil davomiyligi 4 yilni tashkil etadi. Hozirda Yaponiyada majburiy ta'lim 9 yilni tashkil etadi (boshlang'ich ta'lim 6 yil, o'rta ta'lim 3 yil). Boshlang'ich hamda o'rta ta'lim bepul, biroq ta'limning keying bosqichlari uchun talabalar to'lov qilishlari talab qiladi. Yaponiyada 9 yillik majburiy ta'limdan keying yuqori ta'limning yuqori bosqichlarida 62,5% ulush xususiy xarajatlar ulushiga to'g'ri keladi. Shunga qaramay 2025-yilda Yaponiyada yuqori maktablar uchun ¥118,800 miqdorida subsidiya joriy etilgan bo'lib, bu bilan barcha talabalar uchun bepul ta'limga o'tishni ta'minlash maqsad qilingan. So'nggi yillarda Yaponiyada ta'lim tizimida AI va raqamli ta'limni joriy etish, yangi maktablarga doir huquqiy me'yoriy hujjatlarda AI ta'limini majburiy qilinishi, shuningdek, sun'iy intellektidan foydalanishda o'quvchilarda axloqiy foydalanish ko'nikmasi hamda va yangi avlod o'qituvchilarini tayyorlashga urg'u berishga alohida e'tibor qaratimoqda. Bundan tashqari oliy ta'limda xorijiy talabalar almashunuvi darajasini ko'paytarish, MEXT stipendiyalarini oshirish kabi xalqaro talablarga javob berish yo'lida ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. Statistik ma'lumotlar Yaponiyada 2025-yilda 35 ta maxsus inklyuziv maktab ochilganligi, shuningdek 9,241 maktabda xorijiy til darslari (JFL) joriy etilganligi ko'rsatadi. Ushbu islohotlar Yaponiyada yetishtirilgan kadrlarni global darajada raqobatbardosh qilishga qaratilgan. Yaponiya ta'lim tizimiga xos muammolar ham mavjud bo'lib, o'qituvchilar yetishmasligi ana shunday muammolardan biridir. 2025-yilda JTU tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari ko'ra Yaponiyada 50% o'qituvchilar professional yuk va bosimdan aziyat chekishlari aniqlangan. Qo'shimcha darslar ya'ni "juku tizimi" sababli o'quvchilar ham o'qituvchilar ham psixologik bosimdan qiynaladilar.

3. Xitoy ta'lim tizimi va undagi muammolar.

Xitoy dunyodagi aholi soni bo'yicha yetakchi mamalakat bo'lib, ushbu davlat tomonidan eng ko'p sonli fuaqolar kontengenti bilan samarali ta'lim tizimlaridan birini tashkil qila olgani taqsimga loyiq. Bugungi kunda Xitoy ta'lim tizimi qariyb 293 million talaba hamda 18,8 million o'qituvchiga ega. Xitoyda mos ravishda maktablar soni ham juda ko'p bo'lib, hozirda 518 mingdan ortiq maktablarda o'quvchilarga ta'lim beriladi. Xitoyda ta'lim tizimi milliy iqtisodiy o'sish hamda innovatsiyalarning kaliti deb qaraladi. Albatta Xitoy ta'lim tizimida urban-rural farqlar, stress va sifat muammolari kabi muammolar ham mavjud. Xitoy ta'lim tizimi dunyodagi eng yirik va samarali tizimlardan biri bo'lib, bu yerda o'qitish 9 yillik majburiy ta'limga asoslangan:

1. *“Pre-school” ya'ni maktabgacha ta'lim;*
2. *Boshlang'ich ta'lim;*
3. *O'rta ta'lim;*
4. *Oliy ta'lim bosqichlarni o'z ichiga oladi.*

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari singari Xitoy ham davlat budjetidan salmoqli summalarni ta'lim maqsadlariga jalb etib, ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga intilmoqda. Misol uchun 2025-yilda Xitoy YaIMning 4,2% ini ta'limni tashkil etish va rivojlantirish maqsadida sarflagan. Bugungi kunda Xitoy ta'limda sifat va qamrov bo'yicha dunyoda yetakchilardan biridir. Bu davlatda savodxonlik darajasi 99% ga yaqin deb baholanadi. Xitoyda ta'lim tizimi kommunistik partiya nazorati ostida bo'lib, asosiy ta'lim prinsipi milliy birlashuv va texnologik rivojlanishga xizmat qiladi. Albatta so'nggi yillarda demografik o'zgarishlar ya'ni aholi yoshining keskin qarishi, ya'ni tug'ilish koeffitsientining pastligi ayrim iqtisodiy bosimlar sababli ta'lim tizimida ham qator qiyinchiliklar paydo bo'la boshlagan. 2025-yilda aholi ko'payishi 10% ga pasayishi natijasida talabalar soni kamayishi kuzatilmoqda. Shunga qaramay ishsizlik indeksida Xitoyda yoshlar orasida 15% ishsiz ekanligini ko'rish mumkin.

Xitoy ta'lim tizimini mazmunan chuqur tushib yetish uchun albatta mazkur tizimning tarixiy rivojlanish evolutsiyasini ko'rib o'tish maqsadga muvofiqdir. Albatta mazkur rivojlanish yo'lida Konfutsiy davrida alohida ahamiyat kasb etadi. Konfutsiy davri miloddan avvalgi 551-479 yillarga to'g'ri keladi. Shu davrlardan Xitoyda imperatorlik imtihonlari ya'ni “keju” tizimi shakllangan. Mazkur davrlar Xitoyda falsafiy va dunyoviy bilimlarning rivoj topishi, olamni tushunish, o'zlikni anglash, ta'lim va bilim ustuvorligiga erishish yo'lida juda katta amaliyot maktabi vazifasini o'tagan. Xitoy ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish tendensiyasi esa XX-asrda boshlangan desak xato bo'lmaydi, chunki 1949-yilgacha Xitoyda ta'lim elitaga yo'naltirilgan bo'lib, faqat zodagonlarga o'qish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Shu sababli 1949-yilgacha Xitoyda savodxonlik past bo'lib taxminan 20% atrofida bo'lgan. 1911-yilga kelib Xitoyning Shanxay shahrida Sinxay inqilobi (21-rasm) sodir bo'ladi. Mazkur inqilob natijasida ushbu malakatda ta'limni modernizatsiya qilina boshlaydi.



3.1-rasm. Ta'lim modernizatsiyasiga sabab bo'lgan Sinxay inqilobi.
(Xitoy, Shanxay shahri 1911-yil)

Keyingi davr xususan, 1949-1978- yillar tarixiy manbaalarda Mao davri deb nomlanadi. Mao davrining ta'limga ta'sir ko'rsatgan eng katta o'zgarishi bu kommunistik ta'limning joriy etilganligi hisoblanadi. Biroq Xitoyda 1966-1976 yillarda sodir bo'lgan "Madaniy inqilob" natijasida maktablar buzilib, millionlab yoshlar mehnatga jalb qilinadi.

1978-yildan keyin Xitoyda Deng Syaopin islohotlari davri boshlanib, ochiqlik siyosati, ta'limni rivojlantirish ishlariga yana e'tibor qaratila boshlaydi. Xitoyda 9 yillik majburiy ta'lim to'g'risidagi qonun 1986-yilda qabul qilinadi. 1990-2000-yillardan keyingi davr oliy ta'lim uchun muhim rivojlanish davriga aylanib, bu vaqtda mamlakatda universitetlar soni 4 barobarga oshdi.

2010-2025- yillarda Xitoyda "Double First-Class" (jahon darajasidagi universitetlar) loyihasi va 2021-yildan boshlab "Double Reduction" siyosati joriy etildi. 2025-yilda Milliy ta'lim rejasi ta'limni kengaytirish va kasb-hunar ta'limini integratsiya qilishni rejalashtirildi. Ushbu rivojlanish Xitoyni qashshoqlikdan global superkuchaga aylantirdi. Ammo shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Xitoyda an'anaviy imtihon bosimi tushunchasi hanuz saqlanib qolmoqda.

2025-yilda Xitoy ta'limi "6-3-3-4" tizimiga asoslangan:

1. boshlang'ich ta'lim - 6 yil;
2. junior ya'ni o'rta ta'lim - 3 yil;
3. senior o'rta ta'lim - 3 yil;
4. oliy ta'lim - 4 yil.

Xitoyda 9 yillik majburiy ta'lim ya'ni boshlang'ich va junior o'rta ta'lim davri bepul bo'lib, davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

PISA testlarida Xitoy yuqori natijalar ko'rsatmoqda, xususan matematika va tabiiy fan bo'yicha Xitoylik o'quvchilar yetakchilardan hisoblanadi. Ushbu mamlakatda ham raqamli ta'lim (smart education) yo'lga qo'yilgan bo'lib, 2025-yilda "3C" strategiyasi orqali aynan raqamli evolyutsiya tamoyiliga o'tilgan. Ta'lim siyosati

milliy rivojlanishga yo'naltirilgan bo'lib "Made in China 2025" va "Belt and Road" loyihalari ta'lim orqali qo'llab-quvvatlanadi. Bu islohotlar ta'limni sifatli qilish hamda inklyuziv ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. So'nggi yillarda Xitoyda xorijiy talabalar soni oshib bormoqda. Xitoyning Double First-Class universitetlari jahon reytingida yuqori o'rinda turadi.

Xulosa qilib aytganda yaqin Sharq ta'lim tizimi boy madaniy meros va iqtisodiy o'zgarishlar (neft daromadlari, globalizatsiya) ta'sirida 20-asrning ikkinchi yarmida shakllangan. Ushbu hududlarda ta'lim markazlashgan va majburiy bo'lib asosan 6–18 yosh bo'lgan davr uchun bepuldir. Yaqin sharq mamlakatlarida ta'lim tizimi gender tengligi, raqamlashtirish va islomiy qadriyatlar uyg'unligiga urg'u bermoqda. Yaqin sharq mamlakatlari Saudiya Arabistoni, BAA, Eron, Turkiya, Isroil, Misrda ta'lim tizimi taraqqiyoti va asosiy tamoyillari bir-biridan farq qiladi. Ushbu malakatlarda iqtisodiy tengsizlik, PISA/TIMSS natijalarining pastligi, siyosiy beqarorlik kabi muammolar ta'lim tizimga muammo sifatida ta'sir etib turadi. Sharqda Yaponiya ta'limi Meyndzi davridan boshlab juda katta ijobiy o'zgarishlarga duch kelgan. Yaponiya PISA natijalri bo'yicha yetakchisi mamlakatlardan hisoblanadi. Mamlakatda AI va inkluziv ta'lim juda faol joriy etilmoqda, ammo juku va o'qituvchi bosimi muammolari mavjud. Xitoy ta'limi Konfutsiy va keju tizimidan kelib chiqib, 1949-yildan modernizatsiya qilingan va 9 yillik majburiy hamda bepul shaklga o'tkazilgan. Xitoyda ta'lim 6-3-3-4 struktura bo'yicha olib boriladi. Mamlakat o'quvchilarining PISA natijalari yuqori ekanligi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". – 2019-yil 8-oktabr.
2. Ismoilov U.Sh. Jahon ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2021.
3. Abdurahmonova D.T. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash masalalari. Ped. fan. bo'yicha PhD diss. – Toshkent, 2020.
4. Кузьминов Я.И. Развитие высшего образования: мировой опыт. – Москва: ВШЭ, 2020.
5. Иванова Н.П. Тенденции развития мировых образовательных систем. Дисс. канд. пед. наук. – Москва, 2019.
6. Петров А.С. Интеграционные процессы в мировом образовании. Дисс. докт. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2021.
7. Джуринский А.Н. Мировое образовательное пространство // *Педагогика*. – 2020. – №6.
8. Marginson S. Global higher education rankings // *Higher Education*. – 2019 OECD. Trends shaping education // *OECD Working Papers*. – 2022.

ELEKTRON VA NORMATIV MANBALAR

1. ziyonet.uz
2. <http://www.voppsy.ru>
3. www.tdpu.uz
4. [www.pedagog.uz.](http://www.pedagog.uz)
5. World.uz